

KLASSIK VA ZAMONAVIY TAFSIRLARDA MUTOVATIR QIROATLARGA YONDASHUVNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Fayziyev G'olib Muxammadi o'g'li

Oriental Universiteti magistri

fayziyevgolib71@gmail.com

Ilmiy rahbar: t.f.n. Ismoilov Maqsudxon

Annotatsiya: Ushbu tezisdagi klassik va zamonaviy tafsirlarda mutovatir qiroatlarga yondashuvning o'ziga xos xususiyatlari qiyosiy tahlil qilindi. Tadqiqotda Abu Ja'far at-Tabariy, az-Zamaxshariy, Faxriddin ar-Roziy, Ibn al-Jazariy kabi klassik mufasssirlar hamda Muhammad at-Tahir ibn Ashur va Vahba az-Zuhayliy kabi zamonaviy olimlarning qiroatlarga oid metodologik qarashlari asos qilib olindi. Ular asosida mutovatir qiroatlarning Qur'on oyatlari ma'nosini talqin etishdagi ilmiy, lug'aviy, fiqhiy va falsafiy yondashuvlari qiyosiy tahlil qilindi. Klassik va zamonaviy tafsir maktablaridan keltirilgan ilmiy misollar asosida mutovatir qiroatlarning tafsir metodologiyasidagi o'рни hamda Qur'onshunoslik rivojiga qo'shgan hissasi yoritildi. Natijada, mutovatir qiroatlarga oid yondashuvlar Qur'on oyatlarini chuqurroq anglashga xizmat qiluvchi muhim metodologik asos ekanligi asoslab berildi.

Kalit so'zlar: Mutovatir qiroatlar, Qur'on tafsiri, klassik tafsir, zamonaviy tafsir, mufasssirlar, tafsir metodologiyasi, qiroatshunoslik, islom falsafasi, qiyosiy tahlil, Qur'onshunoslik.

Abstract. This thesis comparatively analyzed the distinctive features of approaches to mutawatir Qirā'āt in classical and contemporary Qur'anic exegesis. The study was based on the methodological views of classical exegetes such as Abu Ja'far al-Tabari, az-Zamakhshari, Fakhr al-Din al-Razi and Ibn al-Jazari, as well as contemporary scholars including Muhammad al-Tahir Ibn Ashur and Wahbah al-Zuhayli. On this basis, the scholarly, linguistic, jurisprudential and philosophical approaches to the interpretation of the meanings of Qur'anic verses through mutawatir Qirā'āt were comparatively examined. Drawing on examples from classical and contemporary schools of exegesis, the role of mutawatir Qirā'āt in the methodology of Qur'anic interpretation and their contribution to the development of Qur'anic studies were highlighted. As a result, it was substantiated that approaches to mutawatir Qirā'āt constitute an important methodological foundation for a deeper understanding of the meanings of Qur'anic verses.

Keywords: Mutawatir Qirā'āt, Qur'anic exegesis, classical exegesis, contemporary exegesis, exegetes, methodology of exegesis, Qirā'āt studies, Islamic philosophy, comparative analysis, Qur'anic studies.

Аннотация. В настоящих тезисах был проведён сравнительный анализ особенностей подходов к мутаватирным кираатам в классических и современных тафсирах Корана. В основу исследования были положены методологические

взгляды классических мufассиров, таких как Абу Джафар ат-Табари, аз-Замахшари, Фахр ад-Дин ар-Рази и Ибн аль-Джазари, а также современных учёных — Мухаммада ат-Тахира ибн Ашура и Вахбы аз-Зухайли. На этой основе были сравнительно проанализированы научные, лингвистические, правовые и философские подходы к толкованию смыслов аятов Корана посредством мутаватирных кираатов. На примерах классических и современных школ тафсира была раскрыта роль мутаватирных кираатов в методологии толкования Корана и их вклад в развитие коранистики. В результате было обосновано, что подходы к мутаватирным кираатам представляют собой важную методологическую основу для более глубокого понимания смыслов коранических аятов.

Ключевые слова: мутаватирные кирааты, тафсир Корана, классический тафсир, современный тафсир, мufассиры, методология тафсира, кираатоведение, исламская философия, сравнительный анализ, коранистика.

Kirish. Qur'on tafsiri ilmi islom ilmiy merosining muhim yo'nalishlaridan biri bo'lib, unda mutovtir qiroatlar Qur'on oyatlarining ma'nosini to'g'ri anglash va sharhlashda asosiy metodologik manbalardan biri hisoblanadi. Har bir mutovtir qiroat oyatlarning lug'aviy, nahviy va semantik jihatlarini yoritib, ularning mazmun doirasini yanada kengaytiradi. Shu bois klassik va zamonaviy mufasssirlar qiroatlarga turlicha metodologik yondashgan bo'lsalar-da, ularning barchasi mutovtir qiroatlarning ishonchiligi va tafsir jarayonidagi ahamiyatini e'tirof etgan. Qur'onshunoslikka oid klassik manbalar hamda zamonaviy ilmiy tadqiqotlar ushbu yondashuvlarning tafsir metodologiyasi va islom falsafasi rivojidadagi o'rnini yaqqol namoyon etadi[1]. Mazkur tezisda klassik va zamonaviy tafsir maktablarining mutovtir qiroatlarga yondashuvi qiyosiy tahlil qilinib, ularning o'ziga xos xususiyatlari hamda Qur'on oyatlarini talqin etishdagi metodologik ahamiyati ilmiy misollar asosida yoritildi.

Asosiy qism. Klassik tafsir maktabi vakillari mutovtir qiroatlarni Qur'on oyatlarining ma'nosini aniqlashda eng ishonchli manbalardan biri sifatida e'tirof etganlar. Abu Ja'far at-Tabariy tafsirida bir oyatga oid bir nechta mutovtir qiroatlar keltirilib, ularning har biri arab tili qoidalari va rivoyatlarning ishonchlilik darajasi asosida sharhlangan. U qiroatlar o'rtasidagi farqlarni Qur'on mazmunidagi qarama-qarshilik emas, balki ma'noning kengayishi va boyishi sifatida baholagan[2]. Az-Zamaxshariy qiroatlarni balog'at va nahv ilmi nuqtai nazaridan tahlil qilgan. U ayrim oyatlardagi turli qiroatlar orqali lafziy ifoda va uslubiy nozikliklarni ochib bergan. Masalan, "Māliki yawmi ad-dīn" va "Maliki yawmi ad-dīn" qiroatlarida birinchi qiroat Allohning Qiyomat kunining mutlaq egasi ekanligini, ikkinchi qiroat esa Uning hukmronligi va podshohligini ifodalashini ta'kidlagan. Natijada, har ikki qiroat bir-birini inkor etmay, balki oyat mazmunini to'ldiruvchi semantik qatamlarni yuzaga chiqargan.

Faxriddin ar-Roziy mutovtir qiroatlarni nafaqat tilshunoslik, balki falsafiy va kalomiy nuqtai nazardan ham tahlil qilgan. Uning fikricha, qiroatlardagi ayrim farqlar ilohiy kalomning hikmatini chuqurroq anglashga xizmat qiladi. Shu bois u qiroatlar orasidagi ma'no tafovutlarini Qur'on tafsirining metodologik boyligi sifatida baholagan

[3]. Zamonaviy tafsir maktabida esa mutovatir qiroatlarga yanada kompleks yondashuv shakllangan. Muhammad at-Tahir ibn Ashur qiroatlarni Qur'on matnining tarixiy, tilshunoslik va ijtimoiy kontekstini tushuntirish vositasi sifatida izohlagan. Vahba az-Zuhayliy esa ularni fiqhiy hukmlar, aqidaviy masalalar va zamonaviy hayot bilan bog'liq talqinlarda muhim metodologik asos sifatida qo'llagan. Zamonaviy mufasssirlar mutovatir qiroatlarni Qur'on matnining ko'p qirrali semantik tuzilishini ochib beruvchi ilmiy vosita sifatida baholaganlar. Klassik va zamonaviy yondashuvlarning qiyosiy tahlili shuni ko'rsatdiki, klassik mufasssirlar qiroatlarga asosan rivoyat, arab tili, nahv va balog'at mezonlari asosida yondashgan bo'lsalar, zamonaviy mufasssirlar ularga germenevtik, tarixiy va qiyosiy metodlar orqali ham baho berganlar[6]. Biroq har ikkala tafsir maktabi mutovatir qiroatlarning Qur'on matni ishonchliligini ta'minlashdagi o'rni va oyatlar ma'nosini to'g'ri anglashdagi ahamiyatini birdek e'tirof etgan. Aynan shu jihat mutovatir qiroatlarni Qur'on tafsiri metodologiyasining ajralmas tarkibiy qismi sifatida namoyon etgan.

Xulosa. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, mutovatir qiroatlar Qur'on tafsiri metodologiyasining ajralmas tarkibiy qismi bo'lib, oyatlar ma'nosini to'g'ri anglash va talqin etishda muhim ilmiy asos vazifasini bajargan. Klassik mufasssirlar mutovatir qiroatlarni rivoyatlarning ishonchliligi, arab tili, nahv, balog'at va fiqh mezonlari asosida sharhlagan bo'lsalar, zamonaviy mufasssirlar ularni tarixiy, tilshunoslik, germenevtik hamda falsafiy yondashuvlar bilan boyitgan. Har ikkala yondashuv Qur'on matnining asl mazmunini saqlash va uning semantik qamrovini kengroq ochib berishga xizmat qilganligi bilan ahamiyat kasb etgan. Qiyosiy tahlillar mutovatir qiroatlar o'rtasidagi farqlar mazmuniy ziddiyatni emas, balki ilohiy kalomning ma'no boyligini ifodalashini ko'rsatdi. Shu sababli qiroatlar tafsir ilmida turli hukm va xulosalarni asoslash, oyatlarning lug'aviy hamda uslubiy nozik jihatlarini ochib berish va Qur'on oyatlarining ko'p qatlamli mazmunini anglash imkonini yaratgan. Zamonaviy Qur'onshunoslikda ham ushbu yondashuvlar Qur'on tafsirining metodologik asoslarini takomillashtirishda muhim ilmiy ahamiyat kasb etgani aniqlandi. Natijada, klassik va zamonaviy tafsir maktablarida mutovatir qiroatlarga nisbatan qo'llangan metodologiyalar o'z davrining ilmiy ehtiyojlari va yondashuvlari bilan farqlangan bo'lsa-da, ularning umumiy maqsadi Qur'on oyatlarining mazmunini ishonchli va mukammal talqin etishdan iborat bo'lgani asoslab berildi. Mutovatir qiroatlarni qiyosiy o'rganish Qur'onshunoslik, tafsir ilmi va islom falsafasining nazariy asoslarini yanada boyitishi hamda zamonaviy ilmiy tadqiqotlar uchun muhim metodologik manba bo'lib xizmat qilishi xulosasiga kelindi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Ibn Kathīr, Ismā'īl ibn 'Umar. *Tafsīr al-Qur'ān al-'Azīm*. – Bayrut: Dār al-Kutub al-'Ilmiyya, 2003. – 8 jild.
2. Makki ibn Abī Ṭālib al-Qaysī. *Al-Ibānah 'an Ma'ānī al-Qirā'āt*. – Riyod: Dār al-Waṭan, 1997. – 412 b.

MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS

3. Muḥammad Sālim Muḥaysin. *Al-Qirā'āt wa Atharuhā fī at-Tafsīr wa al-Aḥkāṁ*. – Qohira: Maktabat al-Kulliyyāt al-Azhariyyah, 1984. – 294 b.
4. Al-Azhar University. Qur'anic Studies Portal. <https://www.azhar.eg>
5. King Saud University – Qur'anic Sciences Research Center. <https://quran.ksu.edu.sa>

